

YIRIK INVESTITSIYA LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH UCHUN ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLAB OLISH TO‘G‘RISIDA

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish to'g'risida uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Mazkur uslubiy qo'llanmada yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun taqdim etiladigan takliflarni tanlab olish jarayonini tartibga solish jarayoni yoritilgan. Yirik loyihalar mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalar taraqqiyotida muhim o'rin tutgani sababli, ularni samarali tashkil etish va tanlashda aniq mezonlar va uslubiy yondashuvlarga ehtiyoj katta.

Qo'llanma investitsiya takliflarini chuqur tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorligini, hududiy va ijtimoiy ahamiyatini baholash, shuningdek jarayonning shaffofligi va adolatli raqobat muhitini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy qoidalar va tavsiyalarni belgilaydi. Shuningdek, unda investitsiya majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish, loyihalarning barqarorligini ta'minlash hamda xalqaro tajribaga mos yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi 4434-son “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi 90-sonli “ Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida ”gi farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-sentabrdagi 592-sonli “Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish jarayonida yirik investitsiya loyihalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunday loyihalar nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birga, yirik investitsiya loyihalarini tanlab olish jarayonida ularning moliyaviy barqarorligi, texnologik samaradorligi, ekologik xavfsizligi va ijtimoiy foydaliligini puxta baholash zarurati mavjud. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, eng yaxshi taklifni tanlab olishda shaffof mezonlar, ilmiy asoslangan metodlar va xalqaro tajribaga mos yondashuvlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun taqdim etiladigan takliflarni tahlil qilish, ularning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda eng maqbulini tanlab olish jarayonini tartibga solish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Qo'llanma davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, investitsiya va konsalting kompaniyalari, shuningdek ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, investitsiya faoliyatida samaradorlik va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.



Umumiy qoidalar

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- **yer uchastkasi** — yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda davlat yer kadastrida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilmagan, davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan qismi;
- **“YERELEKTRON” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — “YERELEKTRON” AAT)** — yer uchastkalarini berish bo'yicha materiallarni to'plash, ko'rib chiqish va unga kiritilgan vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan kelishish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- **ishchi organ** — viloyatlar va Toshkent shahri hududlarida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi;
- **yirik investitsiya loyihasi** — viloyatlar va Toshkent shahri hududlarida qiymati kamida 10 million AQSh dollari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida

qiymati kamida 5 million AQSh dollari ekvivalentida bo'lgan investitsiya loyihasi

- **ochiq elektron portal** — internet jahon axborot tarmog'i orqali yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish maqsadida bo'sh turgan yer uchastkasini aniqlash, chegarasini belgilash imkonini beruvchi axborot tizimi;
- **talabgor** — amalga oshirish uchun taklif sifatida yirik investitsiya loyihasini taqdim etgan jismoniy va yuridik shaxslar;
- **Hukumat komissiyasi** — Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi;
- **eng yaxshi taklif** — Hukumat komissiyasi tomonidan belgilangan mezonlar asosida eng yuqori ball to'plagan yirik investitsiya loyihasi;
- **g'olib** — eng yaxshi taklifni taqdim etgan talabgor.



Bilib oling!

Yirik investitsiya loyihasi doirasida:

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda — faqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun qishloq xo'jaligi maqsadlarida;
- qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda — qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish mumkin.



DIQQAT!

Yakka tartibdagi uy-joy va ko'p kvartirali uylar qurilishini nazarda tutuvchi loyihalar yirik investitsiya loyihasi hisoblanmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

Tanlangan yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymatidan kam bo'lgan qiymatdagi yirik investitsiya loyihasi bo'yicha takliflar ko'rib chiqilmaydi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymatini aniqlash ushbu tanlangan yer uchastkasi joylashgan tuman (shahar)da so'nggi 6 oy davomida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilingan yer uchastkalarining 0,01 gektar maydonining o'rtacha narxidan kelib chiqib Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan belgilanadi.

Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun yer uchastkasini tanlash va yer uchastkasi bo'yicha hujjatlar yig'ma jildini tayyorlash tartibi



Talabgor yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun Ishchi organga davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ariza bilan murojaat etadi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:



yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish bosqichlari, usullari, mexanizmlari va asoslantirilgan hisob-kitob ma'lumotlari (biznes-reja);



talabgor tomonidan muqaddam muvaffaqiyatli amalga oshirilgan loyihalar to'g'risida ma'lumot (portfolio);



yirik investitsiya loyihasi bo'yicha taqdimot materiallari.

DIQQAT!

Ariza qabul qilingandan so'ng talabgorga tegishli invoys taqdim etiladi. Talabgor invoysga muvofiq Ishchi organing maxsus hisobvarag'iga o'zining yirik investitsiya loyihasi qiymatining kamida 10 foiziga teng kafolat mablag'ini joylashtiradi.

Kafolat mablag'i Ishchi organing maxsus hisobvarag'iga kelib tushganligi axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali tekshiriladi.

Kafolat mablag'i kelib tushganligi axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali tasdiqlangandan so'ng ariza va unga ilova qilingan hujjatlar Ishchi organga avtomatik ravishda yuboriladi.



Ariza davlat xizmatlari markazlari orqali taqdim etilganda murojaatchidan bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Ariza O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etilganda, murojaatchidan Davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat etganda to'lanadigan summaning 90 foizi miqdorida yig'im to'lanadi.

Yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) davlat xizmatlari markazlariga o'zi kelib murojaat etganda:

- **20 foizi** — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi;
- **60 foizi** — O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga;
- **0,5 foizi** — to'lovlarni tasdiqlash Yagona billing tizimi orqali amalga oshirilganligi uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;
- qolgan mablag'lar — Ishchi organning hisobvarag'iga o'tkaziladi;

b) YIDXP orqali murojaat etilganda:

- **10 foizi** — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi;
- **11,25 foizi** — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;
- **0,5 foizi** — to'lovlarni tasdiqlash Yagona billing tizimi

orqali amalga oshirilganligi uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;

- **55 foizi** — O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga;
- qolgan mablag'lar — Ishchi organning hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Davlat xizmatlari ko'rsatilganda yig'im to'langanligini tasdiqlash Yagona billing tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ariza qaytarib olinganda yoki talabgor g'olib deb topilmaganda ushbu yig'im summasi qaytarib berilmaydi.



Bilib oling!

Ishchi organ kelib tushgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni 3 ish kuni ichida ko'rib chiqadi.

Agarda barcha hujjatlar to'liq mavjud bo'lmasa, Ishchi organ hujjatlarni talabgorga bartaraf etilishi lozim bo'lgan kamchiliklarni ko'rsatgan holda qaytaradi.

Talabgor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda kamchiliklar aniqlanmasa, Ishchi organ yirik investitsiya loyihasini Hukumat komissiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritadi.

Hukumat komissiyasi yirik investitsiya loyihasi kelib tushgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida ushbu loyihani konseptual jihatdan ko'rib chiqadi va uni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi

yoki maqsadga muvofiq emasligi bo'yicha aniq asos va sabablarni ko'rsatgan holda qaror qabul qiladi.

Bilib oling!

Hukumat komissiyasining qarorlari u qabul qilingan kundan keyingi ish kunidan kechikmagan holda Ishchi organning rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida davlat tilida, rus va ingliz tillarida e'lon qilinadi.

Hukumat komissiyasi tomonidan yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish maqsadga muvofiq emasligi bo'yicha qaror qabul qilingan taqdirda, muqobil taklif qabul qilish bo'yicha e'lon berilmaydi va tanlov o'tkazilmaydi.

Bunda, talabgor yirik investitsiya loyihasi va uni amalga oshirish uchun tanlangan yer uchastkasini qayta ko'rib chiqib, umumiy tartibda qayta murojaat etishi mumkin.



Hukumat komissiyasi yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb qaror qabul qilgan taqdirda ushbu qaror qabul qilingan kundan keyingi ish kunidan kechikmagan holda Davlat kadastrlari palatasiga ariza bo'yicha bo'sh turgan yer uchastkasini aniqlash bo'yicha so'rov yuboradi.





Davlat kadastrlari palatasi so'rov kelib tushgan kundan boshlab **20 ish kuni ichida** elektron shaklda yer uchastkasi bo'yicha hujjatlar yig'ma jildini tayyorlaydi va uni Ishchi organga yuboradi.



Yer uchastkasi bo'yicha hujjatlar yig'ma jildiga (keyingi o'rinlarda — hujjatlar yig'ma jildi) quyidagilar ilova qilinadi:

- yer uchastkasi, jumladan, maydoni (gektarda), yer uchastkasining yer fondi toifasi, mavjud majburiyatlar, qaysi maqsadga mo'ljallanayotganligi, zarur holda ball boniteti va boshqalar haqida qisqacha ma'lumot;
- yer uchastkasini topografik xaritada (koordinatali nuqtalari bilan), yer uchastkasining chegaralari va manzillarini (aholi punkti va ko'chalar, ko'cha bo'lmaganda esa — mavjud obyektidan metr hisobidagi masofa ko'rsatiladi) hamda yer osti va yer usti muhandislik tarmoqlari M 1:500 dan M 1:1000 gacha kattalikda ko'rsatilgan holda joylashtirish rejasi;
- chegaradosh yer uchastkalaridan foydalanish turlari ko'rsatilgan vaziyat bilan bog'liq sxema;
- yer uchastkasining kamida ikki tomondan o'rab turgan obyektlar bilan birgalikdagi fotosurati (15x20 sm);

- loyihalashtirilayotgan obyektlar bo'yicha — atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi.



Ishchi organ hujjatlar yig'ma jildini olgandan so'ng, 2 ish kuni ichida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi xulosasini olish uchun yuboradi. Davlat ekologik ekspertizasi xulosasini olish bilan bog'liq xarajatlar ushbu Reglamentning 56-bandiga **muvofig tartibda qoplab beriladi.**

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi va davlat ekologik ekspertizasi xulosasini Ishchi organga yuboradi.

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Salbiy xulosada qonunchilik normalariga tayangan holda yer uchastkasini ajratish imkoni yo'qligining asoslangan aniq sabablari ko'rsatiladi.

Bunda, boshqa yer uchastkasi bo'yicha hujjatlar yig'ma jildini tayyorlash umumiy tartibda amalga oshiriladi.

Ishchi organ davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olgandan so'ng, uni hamda hujjatlar yig'ma jildini 2 ish kuni ichida tegishli xulosa olish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish

va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi va Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasiga (keyingi o'rinlarda — qurilish bosh boshqarmasi) yuboradi.

Shaharsozlik hujjati mavjud bo'lgan taqdirda, qurilish bosh boshqarmasi **3 ish kuni** ichida hujjatlar yig'ma jildini ko'rib chiqadi, tanlangan yer uchastkasi bo'yicha xulosa tayyorlaydi.

Xulosada shaharsozlik faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etish talablari bayon etiladi.

Shaharsozlik hujjatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, qurilish bosh boshqarmasi Ishchi organdan hujjatlar yig'ma jildini olgandan so'ng **3 ish kuni**dan kechiktirmasdan uni ko'rib chiqadi hamda o'z xulosasini ilova qilgan holda, hududiy arxitektura shaharsozlik kengashiga (keyingi o'rinlarda — Kengash) kelishish uchun yuboradi.



«Kengash hujjatlar yig'ma jildini **5 ish kuni** ichida navbatdagi majlisda ko'rib chiqadi, **elektron raqamli imzo bilan tasdiqlaydi** va kelishilgan materiallarni qurilish bosh boshqarmasiga yuboradi.».



Qurilish bosh boshqarmasi o'z xulosasini va Kengash tomonidan kelishilgan materiallarni "YERELEKTRON" AAT orqali elektron shaklda 1 ish kuni ichida Ishchi organga elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hujjat shaklida yuboradi.

DIQQAT!

Bunda xulosa **ijobiy** yoki **salbiy** bo'lishi mumkin.

Ijobiy xulosada yer uchastkasidan foydalanish huquqi egasiga nisbatan shaharsozlik faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etish talablari bayon etiladi.

Salbiy xulosada qonunchilik normalariga tayangan holda yer uchastkasini ajratish imkoni yo'qligining asoslangan sabablari ko'rsatiladi hamda tegishli yer uchastkasini boshqa mos keladigan joydan tanlash haqida taklif beriladi.

Kengash materiallarni kelishishdan bosh tortgan taqdirda, qurilish bosh boshqarmasiga Kengash yig'ilishining bayonnomasi rad etishni asoslagan va qonunchilik hujjati normasini aniq ko'rsatgan holda, yer uchastkasi joyini ko'chirish haqidagi taklif bilan yuboriladi.



Bilib oling!

Agar Qurilish bosh boshqarmasi salbiy xulosa bersa yoki Kengash kelishishga rad javobini bersa, Ishchi organ yer uchastkasi materiallarini qayta ishlab chiqishi mumkin. Bunda, berilgan xulosada ko'rsatilgan sabablarni inobatga olib, yer uchastkasi joylashuvini ham o'zgartirishga haqli.

Ishchi organ 2 ish kuni ichida qurilish bosh boshqarmasining salbiy xulosasi yoki Kengashning rad javobi keltirilgan taklifni ko'rib chiqadi. Shundan so'ng, hujjatlar yig'ma jildini, unga xulosa yoki Kengash yig'ilish bayonnomasini ilova qilgan holda, qayta ishlash uchun Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasiga yuboradi.

Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi hujjatlar yig'ma jildini 10 ish kuni ichida qayta ishlab chiqadi, yangilangan hujjatlar yig'ma jildini shakllantiradi va uni Ishchi organga qaytadan yuboradi.



Yangilangan hujjatlar yig'ma jildini qayta ishlash va tayyorlash uchun qo'shimcha haq olinmaydi.



Ishchi organ yangilangan hujjatlar yig'ma jildini olgach, 1 ish kuni ichida uni Qurilish bosh boshqarmasiga yuboradi. Bu xulosa olish yoki Kengash kelishuvini olish uchun Reglamentning 23 va 24-bandlariga muvofiq amalga oshiriladi.



Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish



Hukumat komissiyasi hujjatlar yig'ma jildi kelib tushgan kundan keyingi ish kundan kechikmagan holda mezonlarning muhimlik darajasini belgilash hamda birinchi talabgorning arizasida ko'rsatilgan faoliyat yo'nalishi bo'yicha muqobil taklif qabul qilish bo'yicha e'lon berish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ushbu qaror u qabul qilingan kundan keyingi ish kundan kechikmagan holda Ishchi organga yuboriladi.

DIQQAT!

Ishchi organ, Hukumat komissiyasi qarori kelib tushgan kundan keyingi ish kundan kechikmagan holda, muqobil taklif qabul qilish bo'yicha o'zining rasmiy veb-saytida e'lon joylashtiradi.

E'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

- yirik investitsiya loyihasi yo'nalishi (faoliyat turi);
- taklif etilayotgan yer uchastkasi haqida ma'lumotlar (manzili, maydoni va boshqalar);

- Hukumat komissiyasi qarori bilan belgilangan mezonlarning muhimlik darajasi ketma-ketligi;
- takliflarni qabul qilishning to'xtatiladigan vaqti va sanasi.

DIQQAT!

E'lon qo'shimcha ravishda markaziy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

Yirik investitsiya loyahasiga muqobil takliflar ishchi organning rasmiy veb-saytida e'lon berilgan kundan boshlab **60 kun** davomida (**60-kun soat 24-00 ga qadar**) qabul qilinadi.

E'londa ko'rsatilgan muqobil takliflar qabul qilishning vaqti yakunlangandan so'ng, takliflar qabul qilinmaydi.

Talabgorlar muqobil takliflar qabul qilish muddati davomida o'z muqobil takliflarini o'zgartirishi yoki qaytarib olishga haqli.



Yirik investitsiya loyahasiga berilgan muqobil takliflar ishchi organ tomonidan ushbu Reglamentning 15 va 16-bandlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatda Hukumat komissiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.



Ishchi organ tomonidan muqobil takliflar oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi.



Bilib oling!

Hukumat komissiyasi majlislari, agar ularning ishida Hukumat komissiyasi a'zolarining umumiy sonining **3 dan 2 qismi** ishtirok etsa, **vakolatli** hisoblanadi.

Zarurat bo'lganda, Hukumat komissiyasi majlisiga loyihaning xususiyatiga qarab vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari, xo'jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlarning rahbarlari taklif qilinadi.

DIQQAT!

Majlisni o'tkazishga kvorum bo'lmagan taqdirda, Hukumat komissiyasi qaroriga asosan majlis boshqa kunga qoldiriladi.

Ishchi organ Hukumat komissiyasi majlisini o'tkazish sanasi va joyi haqida ushbu majlis o'tkaziladigan kundan kamida 2 kun oldin **o'zining rasmiy veb-saytida** e'lon beradi.

Hukumat komissiyasi majlislarida ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishi mumkin, ularning ishtirokini cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Hukumat komissiyasi majlisini o'tkazish vakolatli bo'lganda takliflar talabgorlarning ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Bunda, belgilangan tartibda chaqirilgan talabgor Hukumat komissiyasi majlisiga kelmagan taqdirda, Hukumat komissiyasi majlisi davom ettirilishi mumkin.

Berilgan ballarning yig'indisiga ko'ra, eng yuqori ball to'plagan taklif yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha eng yaxshi taklif deb tanlab olinadi hamda qaror bilan tasdiqlanadi.

Hukumat komissiyasi qarorida quyidagilar ko'rsatiladi:



komissiya rahbari, komissiya a'zolari hamda kun tartibi to'g'risida ma'lumot;



yirik investitsiya loyihasi bo'yicha kelib tushgan talabgorlarning muqobil takliflari to'g'risida ma'lumot;



komissiya a'zolari tomonidan talabgorlarning muqobil takliflariga berilgan ballar to'g'risida ma'lumot;



g'olib to'g'risida ma'lumot.

DIQQAT!

Hukumat komissiyasi qarori komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Hukumat komissiyasi majlislari audio va videoyozuvlarda qayd etib boriladi hamda Ishchi organing rasmiy veb-saytida real vaqt rejimida translatsiya qilinadi.



Bu muhim!

Birinchidan, Agar talabgorlarning takliflariga berilgan ballar teng bo'lib qolsa, ular orasidan birinchi darajali mezon bo'yicha yuqori ball olgan yirik investitsiya loyihasi tanlab olinadi.

Berilgan ballar teng bo'lib qolsa, davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali erta ariza bergan talabgor g'olib deb topiladi.

Yer uchastkasining ijara muddatini uzaytirish hamda yerga bo'lgan huquq turini o'zgartirish tartibi



Ijara muddatini uzaytirish yoki huquq turini o'zgartirish quyidagilarga asoslanadi:



investitsiya majburiyatlari bajarilgan bo'lishi;



yer qonunchiligi buzilmagan bo'lishi;



qishloq xo'jaligi yerlari bo'lsa, tuproq unumdorligi pasaymagan bo'lishi.

DIQQAT!

Ijarachi ijara muddati 3 dan 2 qismi o'tgach, ammo tugashiga kamida 6 oy qolganda, uzaytirish yoki huquqni o'zgartirish haqida ariza berishi mumkin.

Ishchi organ arizani 2 kun ichida ko'rib chiqib, Kadastr agentligi va Qishloq xo'jaligi vazirligidan xulosa so'raydi hamda 5 kun ichida investitsiya majburiyatlari yuzasidan xulosa beradi.

Kadastr agentligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi 5 ish kuni ichida qonunbuzilishlar va tuproq unumdorligi haqida xulosa tayyorlaydi.

Ishchi organ barcha xulosalarni Hukumat komissiyasiga yuboradi. Komissiya 5 ish kuni ichida arizani ko'rib chiqib, uzaytirish yoki huquqni o'zgartirish masalasida qaror qabul qiladi.

Salbiy xulosa berilsa yoki yer xususiylashtirilmaydigan turga kiritilsa, ariza rad etiladi.

Agar ma'qullansa, ishchi organ hujjat loyihasini tayyorlab, Vazirlar Mahkamasiga kiritadi. Vazirlar Mahkamasi tegishli qaror qabul qiladi va nusxasini ijarachiga yuboradi.

Qaror asosida ijarachi hokimlik bilan yangi shartnoma tuzadi yoki yer uchastkasini xususiylashtirishi mumkin. Bunda investitsiya majburiyatlari yuklanmaydi.

Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalari ijara huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

Investitsiya majburiyatlari ijrosini Ishchi organing hududiy boshqarmalari amalga oshiradi.

Yer uchastkasidan foydalanish ustidan davlat nazorati Kadastr agentligi, qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha esa Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan olib boriladi.

emas. Bunday holat majburiyatlarni buzish deb hisoblanadi va huquqni bekor qilishga asos bo'ladi.



Yakunlovchi qoidalar

Investitsiya majburiyatlari doirasida yuzaga kelgan nizolar qonunchilik hujjatlariga muvofiq taraflarning o'zaro kelishuvi yoki sud tartibida hal etiladi.

Talabgorlar ushbu Reglament talablari buzilishi, Ishchi organ, Kadastr agentligi va Qishloq xo'jaligi vazirligining xulosalari hamda ularning hududiy boshqarmalari monitoring dalolatnomasi, Hukumat komissiyasi qarori yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishlari mumkin.



Qonunchilik talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish va o'zlashtirish tartibiga oid uslubiy qo'llanma

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. Al № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. "Calibri" garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.